XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 15-iyul VII-19-58-4-62-K/26 Kitob tumani

Kitob tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi "a" kichik bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-sonli qarorini hamda tuman hokimining o‘rinbosari F.Usmonovning 2026-yil 20-iyundagi 03-03/2016-sonli xati bilan taqdim etilgan tariflar loyihasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kitob tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun belgilangan tariflar ko‘rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun yangi tariflar tasdiqlanganligini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilik hamda tadbirkorlik subyektlari e’tiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Boboyev va tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari F.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashi raisi

KODIROV SOBIR XAKIMOVICH

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2026-yil 15-iyuldagi
VII-19-58-4-62-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Kitob tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun belgilangan tariflar ko‘rsatkichlari

Hudud nomi	Yangi tarif darajalari (so‘mda)			
	Aholiga 1 (bir) kishi uchun bir oyda		Yuridik shaxs (budjet va ulgurji tashkilotlar, korxona va muassasalar)dan 1 m3 uchun	
	QQS siz	12% QQS bilan	QQS siz	12% QQS bilan
Kitob tumani	6 192	6 935	86 275	96 628

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2026-yil 15-iyuldagi
VII-19-58-4-62-K/26 -son qaroriga
2-ilova

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMLIGI
180700 Kitob tumani Katta yo`l ko`chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

20 iyun 2026 yil. **03-03/2016-son**

Xalq deputatlari Kitob tumani

Kengashi raisi S.X. Qodirovga

Hurmatli Sobirjon Xakimovich !

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi "a" kichik bandiga muvofiq, 2026-yil 1-janvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilgan.

Mazkur bandda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmati ko‘rsatilganligi bo‘yicha tariflar tuman hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda Kitob tumanida obodonlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, hududlarni toza va obod saqlash, shuningdek, kelgusida moliyaviy-huquqiy kamchiliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida, Kitob tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun ishlab chiqilgan tariflar loyihasini (ilovaga muvofiq) ko‘rib chiqish uchun taqdim etaman.

Sizdan, ushbu taqdim etilayotgan xizmat ko‘rsatish tariflarini Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tertibiga kiritishingizni hamda tegishli qaror bilan tasdiqlashda amaliy yordam berishingizni so‘rayman.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: FR07469481

Ilova: Xizmat ko‘rsatish tariflari jadvali, __1__ varoqda.

Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar,
kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish
masalalari bo‘yicha o‘rinbosari **F.Usmonov**

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2026-yil 15-iyuldagi
VII-19-58-4-62-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Kitob tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov narxlari (tariflar)ni tasdiqlash to’g’risidagi loyihani huquqiy ekspertizadan o’tkazish yuzasidan

XULOSA

Xalq deputatlar viloyat,tuman va shahar Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uslubiyatiga muvofiq xalq deputatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi, ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Kitob tumani hokimi o’rinbosari F.Usmonovning 2026-yil 20-iyundagi 03-03/2016-sonli xati, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan loyihani yuzasidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quyidagilar:

ANIQLANDI:

Taqdim etilgan qaror loyihasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi, ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Kitob tumani hokimi o’rinbosari F.Usmonovning 2026-yil 20-iyundagi 03-03/2016-sonli xati, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

Qaror loyihasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va Kitob tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha Kitob tumani hokimi o‘rinbosari F.Usmonovning taklifi ma’lumot uchun qabul qilingan. Yuqoridagilarga ko‘ra taqdim etilgan qaror loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

XULOSA QILAMAN:

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashi qaror loyihasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi, ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Kitob tumani hokimi o’rinbosari F.Usmonovning 2026-yil 17-iyundagi 03-03/2016-sonli xati, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan ishlab chiqilgan bo’lib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlariga, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uslubiyati talablariga zid emasligi, qonunchilik texnikasi qoidalariga, havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosligi va maqsadga muvofiqligi qayd etilsin.

Kitob tuman hokimligi
bosh yuristkonsult: **Sh.Eshniyazov**